MUALLIFLIK HUQUQI NIZOLARIDA MEDIATSIYANING QO‘LLANILISHI: XALQARO AMALIYOT VA O‘ZBEKISTONDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Murotov Qo‘chqor Husniddinovich
Jamoat xavfsizligi universiteti
“Yurisprudensiya” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
E-mail: murotovqochqor@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20286892

Annotatsiya: Mazkur maqolada mualliflik huquqi bilan bog‘liq nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xalqaro tajriba asosida AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari hamda boshqa rivojlangan mamlakatlarda mediatsiyaning qo‘llanilish amaliyoti o‘rganilib, uning afzalliklari yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida mualliflik huquqi nizolarida mediatsiyani qo‘llashning huquqiy asoslari, mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar ilmiy asosda tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida mediatsiyani keng joriy etish mualliflik huquqi subyektlari o‘rtasidagi nizolarni tezkor, samarali va kam xarajat bilan hal etish imkonini berishi asoslab beriladi.
Kalit so‘zlar: mualliflik huquqi, mediatsiya, nizolarni hal etish, intellektual mulk, xalqaro tajriba, muqobil nizolarni hal qilish, O‘zbekiston, huquqiy tartibga solish, mediator, suddan tashqari hal etish

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение института медиации при разрешении споров, связанных с авторским правом. На основе международного опыта рассматривается практика применения медиации в США, странах Европейского союза и других развитых государствах, а также раскрываются ее преимущества. Кроме того, исследуются правовые основы применения медиации в спорах об авторском праве в Республике Узбекистан, существующие проблемы и перспективные направления развития. В результате обосновывается, что широкое внедрение медиации способствует эффективному, быстрому и менее затратному разрешению споров между субъектами авторского права.
Ключевые слова: авторское право, медиация, разрешение споров, интеллектуальная собственность, международный опыт, альтернативное разрешение споров, Узбекистан, правовое регулирование, медиатор, внесудебное урегулирование

Abstract: This article examines the role and significance of mediation in resolving copyright disputes. Based on international experience, it analyzes the practice of mediation in the United States, European Union countries, and other developed nations, highlighting its key advantages. Furthermore, the legal framework for applying mediation in copyright disputes in the Republic of Uzbekistan, along with existing challenges and future prospects, is explored. The study concludes that the wider implementation of mediation can ensure faster, more efficient, and cost-effective resolution of disputes among copyright holders.
Keywords: copyright, mediation, dispute resolution, intellectual property, international experience, alternative dispute resolution, Uzbekistan, legal regulation, mediator, out-of-court settlement

Kirish

Tarixdan ma’lumki, insonlar hayotida nizo va o‘zaro kelishmovchiliklar har doim mavjud. Har bir nizolashgan shaxslar faqat o‘z haqiqatlarini isbotlashga va manfaatlarini himoya qilishga harakat qiladilar. Bunday vaziyatda esa taraflar munosabatini saqlab qolish

va kelishmovchiliklarni bartaraf etishning eng maqbul usulini topish muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, nizolarni hal etish deganda, avvalo, sud tizimi orqali nizoni hal etish eng maqbul yechim sifatida namoyon bo‘ladi. To‘g‘ri, kelishmovchilik va nizolarni sud orqali hal etish qator afzalliklarga ega, ammo, afzalliklar bilan birgalikda ba’zi kamchiliklar ham yo‘q emas.

Jumladan, sudlardagi ish hajmining yuqoriligi sabab, nizolarni chuqur tahlil qilish imkonining mavjud emasligi, ko’rib chiqilganda ham nizoning oshkora hal qilinishi, vaqt va ortiqcha mablag‘ning sarflanishi, nizoning sudda ko‘rib chiqilishi natijasida ishning faqat bir tomon foydasiga hal etilishi, ikkinchi tomonning noroziligi sababli ayni bir nizoning appelatsiya va kassatsiya instansiyasida ham ko‘rib chiqilishi, nizolashayotgan taraflarning asabiylashishi va buning sog‘liqqa ta’siri va eng asosiysi, munosabatlarning uzil-kesil tugashiga olib kelishi va hokazolar nizoni har ikkala tomon foydasiga hal etishning muqobil usulini qo‘llashga zaruratni vujudga keltiradi.

Bugungi kunda, O‘zbekiston huquqiy tizimini yanada rivojlantirish, modernizatsiya qilish harakati amalga oshirilayotgan bo‘lib, bu jarayonda nizolarni muqobil hal etish usullarini joriy qilish va takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu tizim orqali demokratik huquqiy davlat qurilishida kelib chiqadigan fuqarolik-huquqiy va o‘zaro manfaatlarga taaluqli nizolarni tez, qulay va ortiqcha rasmiyatchiliklarsiz hal qilish imkoniyati vujudga kelmoqda.

Boshqa huquq sohalari singari intellektual mulk huquqida ham xususan, uning bir turi bo‘lgan mualliflik huquqida ham qator nizolar, kelishmovchiliklar mavjud.

Mualliflik huquqi- bu ijodkor tomonidan fan, adabiyot, san’at bilan bog‘liq aqliy mehnati natijasida o‘z asarini yaratganida, uning nomi bilan bog‘liq holda o‘z ijodiy mehnatining natijalaridan foydalanish huquqi hisoblanadi. Ya’ni muallif o‘zi yaratgan ilmiy, adabiy yoki san’at asarini himoya qiladigan huquqlar to‘plami mualliflik huquqi deb ataladi. Sodda qilib aytganda, ilmiy, adabiy yoki san’at asarini yaratgan shaxs-muallif o‘z asaridan foydalanish, uni tarqatish va undan foyda olish ustidan maxsus huqularga ega bo‘lishi mualliflik huquqini anglatadi. Mualliflik huquqi bo‘yicha vujudga kelgan nizolar esa o‘z nomidan ham ma’lumki, bu muallif yoki huquq egasining o‘z asaridan foydalanish {asarning nusxalanishi, tarqatilishi}, uni himoya qilish yoki undan foyda olish bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan huquqiy kelishmovchiliklardir. Ushbu nizolar sirasiga muallif asaridan uning ruxsatisiz foydalanish, plagiat ya’ni muallif asarini uning ruxsatisiz o‘zlashtirish, muallifni tan olmaslik ya’ni asarning haqiqiy muallifini ko‘rsatmaslik yoki boshqa shaxsni muallif sifatida ko‘rsatish, muallif bilan shartnomani buzish, muallif haqini to‘lash bilan bo‘g‘liq kelishmovchiliklar va boshqa qator nizolarni misol sifatida keltirish mumkin.

Jahon miqyosida mualliflik huquqi sohasini tartibga soluvchi asosiy xalqaro shartnoma va konvensiyalar mavjud. Jumladan, “Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to‘g‘risida” gi Bern konvensiyasi [1886] va TRIPS shartnomasidir. Ushbu xalqaro shartnoma va konvensiyalar mualliflik huquqini tartibga soluvchi ikki asosiy hujjatlar hisoblanadi. Bundan tashqari, Butunjahon intellektual mulk tashkilotining “Mualliflik huquqi to‘g ‘risida” gi shartnomasi va Marrakesh shartnomasi [1]ham muhim ahamiyatga ega xalqaro shartnomalardir.

O‘zbekiston Respublikasida esa intellektual mulk huquqini, uning bir sohasi bo‘lgan mualliflik huquqini tartibga solish qator qonun hujjatlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 53-moddasiga ko‘ra, “Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi”[2]. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 8-bob 97-moddasiga ko‘ra, intellektual faoliyat natijalari mutloq huquq obyekti

[1] https://library-tsul.uz/mualliflik-u-u-i-yakubova-i-2021/
[2] https://lex.uz/docs/-6445145

sifatida tavfsiflanib, undan huquq egasining ruxsati bilangina foydalanish mumkin ekanligi belgilangan[3]. Bundan tashqari, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni, “Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4168-son qarori, “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4380-son Prezident Qarori va boshqa qonun va qonun osti hujjatlar intellektual mulk obyektlarini tartibga solishgda davlat siyosati darajasida e’tibor berilayotganligidan darak beradi.

Intellektual mulk sohasidagi nizolar xususan, mualliflik huquqi o‘ziga xos bo‘lib, ular odatda texnik masalalar, qator maxfiy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bu holat shuni taqozo etadiki, ushbu sohadagi vujudga kelgan nizolarni hal qilish jarayoni ham ushbu sohaning xususiyatlariga mos va xos bo‘lishi lozim. Nizolarni muqobil hal etish usullari xususan, mediatsiya jarayoni ham aynan, ushbu sohada paydo bo‘ladigan nizolarni hal qilishda munosib yechim bo‘la oladi. Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti intellektual mulk sohasidagi xalqaro vakolatli tashkilot hisoblanib, ushbu tashkilot ham intellektual mulk sohasida vujudga keladigan nizolarni, aynan, nizolarni muqobil hal etish usullari orqali ko‘rib chiqishni taklif etadi. Nizolarni muqobil hal etish usuli sifatida mediatsiya jarayoni o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu atama ingliz tilida “meditation” so’zidan olingan va “vositachilik” degan ma’noni anglatadi “Mediatsiya to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi qonuni 4-moddasiga ko‘ra, mediatsiya bu - kelib chiqqan nizoni taraflar o‘zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko‘magida hal qilish usuli[4]. Ya’ni nizolashgan taraflar muammolarini o‘zaro hal etish maqsadida xolis uchinchi shaxsga murojaat qiladilar va har ikkala tomonning manfaatlarini aks ettiradigan maqbul yechimga erishadilar. Mediatsiya jarayonining tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mediatsiyaning dastlabki ko‘rinishi Qadimgi Rim va Yunoniston davlatlari tarixiga borib taqaladi. Yustinian qonun to‘plamida ham nizolarni “vositachilar” ishtirokida ko‘rib chiqish ta’kidlab o‘tilgan. Mediatsiyaning muhim qoidalari XX asrning yigirmanchi yillarida vujudga kelgan. XX asrning 60-yillaridan boshlab, mediatsiya zamonaviy ko’rinish tusini olgan va ilk bor mediatsiya oilaviy nizolarni hal qilish uchun qo‘llanilgan. Mediatsiya sohasining muvaffaqiyatli jihatlari ko‘p. Jumladan, dunyo miqyosida mediatsiyada ko‘rib chiqilgan nizolarning 75 foizdan 85 foizgacha qismi mediatsiya kelishuvini tuzish bilan yakunlangan. Bunda tabiiyki, professor H. Odilqoriyev aytganidek, mediatorning bilimi, diplomatik mahorati, tajribasi va ko‘nikmasi alohida ahamiyat kasb etadi. Endi nizolarni hal etish usullari va intellektual mulk huquqining o‘zaro uyg‘unlashishi qachon vujudga kelganligini tahlil qilsak. Shveysiyada 1834-yilda qirollik farmoni bilan patentni ro‘yxatdan o‘tkazishga qarshi chiqishlar uchun arbitraj vakili berilgan va Buyuk Britaniyadagi sud amaliyotchilari 1855-yildayoq patent nizolari bo‘yicha arbitraj sudyalarini tavsiya qilishgan[5]. Demak, bundan ko‘rinadiki, Intellektual mulk sohasida nizolarni muqobil hal etish usullaridan foydalanish XIX asrga to‘g‘ri keladi. Ya’ni bu asrda mualliflik huquqida mediatsiya qo‘llanilmagan bo‘lsada, intellektual mulk huquqining yana bir turi patent huquqi bo‘yicha nizolarni muqobil hal etish usuli ilk bor qo‘llanilgan. AQSHda XX asrning o‘rtalarida mualliflik huquqi bo‘yicha dastlabki arbitraj qo‘llanilishi kuzatilgan. Ammo, XX asrning oxirigacha ham intellektual mulk nizolari uchun bu muqobil usullar keng qo‘llanilmagan ya’ni bundan shuni anglash mumkinki, intellektual mulk huquqi sohasidagi nizolarni hal etishda mediatsiyadan foydalanish XX asr oxiri va XXI asr boshlariga to‘g‘ri kelmoqda. Bugungi kunda, jahon miqyosida nizolarning qariyb 85 foiz qismi mediatsiya orqali hal qilinadi. Xususan, AQSHda mediatsiya natijasida nizolarning 95 foizi sud

[3] https://lex.uz/mact/-111189
[4] https://lex.uz/uz/docs/-3805227
[5] https://library-tsul.uz/intellektual-mulk-sohasida-nizolarni-hal-etish-bahramova-m-2023/

muhokamasigacha ham bormagan. Germaniyada 91 foiz ishlar, Buyuk Britaniyada 91-95 foiz ishlar, Quyi Saksoniyada 87 foizgacha ishlar mediatsiya orqali ko‘rilgan. Bular orasida tabiiyki, kam bo‘lsada, mualliflik huquqi bo‘yicha nizolar ulushi ham bor.

Mualliflik huquqi nizolarida mediatsiyani qo‘llash haqida to‘xtalib o‘tsak. Mediatsiya haqida gap ketganda doimo bilishimiz shartki, mediatsiya muzokaralar jarayonini osonlashtirish vositasidan boshqa narsa emas. Mualliflik huquqi bilan bog ‘liq nizolarni mediatsiya orqali hal etish quyidagi afzalliklarga ega:

✓ vaqtdan yutish ya’ni sud jarayonlari oylab davom etishi mumkin,

apellatsiya berilganda yana davom etishi mumkin. Ammo, mediatsiya orqali muammo bir necha kun yoki haftada hal qilinadi. Natijada, muallif o‘z huquqini qisqa vaqt ichida tiklaydi.

✓ maxfiylik prinsipining qo‘llanilishi ya’ni mediatsiyada nizolar yopiq

tarzda olib borilganligi bois da’vogar yoki javobgar sha’niga zarar yetish ehtimoli kam.

✓ eng asosiysi taraflar o‘rtasidagi munosabat saqlanib qolinishi.

mediatsiya orqali taraflar o‘rtasidagi hamkorlik, do‘stlik va aloqa munosabatlari saqlab qolinadi. Chunki bu yerda qabul qilingan mediativ kelishuv har ikkala tomon manfaatlarini ham aks ettira oladi.

✓ nizolarning mediatsiya orqali hal etilishi natijasida davlat sudlaridagi ish

yuklanmasining kamayishi va boshqa nizolarni chuqur tahlil qilish imkoniyatining vujudga kelishi.

Bugungi kunda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar huquq tizimida nizolarni sudgacha olib bormasdan, muqobil hal etish usullari orqali hal qilishga qaratilgan mediatsiya jarayoni alohida ahamiyatga ega. Xususan, AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya, Hindiston va Singapur kabi davlatlarda samarali tashkil etilgan va qariyb 50 yildan buyon muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. Rivojlangan davlatlarning deyarli barchasida mediatsiya jarayoni majburiy qilib belgilangan. Ya’ni ish tegishli sudda ko‘rilishidan oldin albatta, mediatsiya qilingan bo‘lishi, mediatsiya natijasida yagona yechimga erishilmagan taqdirdagina davlat sudiga murojaat qilinishi lozim. Ya’ni bu yerda majburiy kelishuvga erishilishi talab qilinmaydi, ammo, taraflar nizo bo‘yicha kelishib olishga harakat qilishiga chaqiriq sifatida qo‘llaniladi.

AQSHda mediatsiya orqali mualliflik huquqi nizolarini hal qilish. AQSHda nizolarni hal etishda mediatsiyadan foydalanish juda mashhur. Amerikada sud amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina nizolarning sudgacha ixtiyoriy ravishda hal qilinishiga erishish, sudyalarning tomonlarga mediatorlar bilan ishlashni maslahat berishiga majburiyat sifatida qaraladi. Nizolarni hal qilish milliy instituti, xususiy va davlat mediatsiya markazlari faoliyat ko‘rsatadi va bu soha asosan, “Mediatsiya to‘g‘risida” gi qonun { Uniform Mediation Act }bilan tartibga solinadi. AQSH fuqarolik protsessi Federal qoidalarida ham sudyalarga nizolarni mediatsiya orqali hal etishga ko‘maklashish tavsiya etiladi.[6] Bundan tashqari mediator istalgan shtatda mediatorlik litsenziyasiz, sertifikatlanmagan yoki ro‘yxatga olinmasdan shaxsiy sharoitlarda ishlashi mumkin. Bu bo‘yicha Amerika yetakchi davlatlardan biri hisoblanib, muqobil hal etish usullari orqali hal etilgan intellektual mulk huquqi nizolarining soni 2023-yil holatiga ko‘ra, 15740 tani tashkil etadi. Ya’ni muqobil hal etish usullari orqali hal etilgan nizolarning 29,51 foizini qariyb 30 foizini intellektual mulk bilan bog‘liq nizolar tashkil etgan, Bundan mediatsiya orqali hal etilgan ishlar 12 fozini tashkil etadi. Boshqa davlatlarda bularning soni quyidagicha: AQSH da ADR da ko‘rilgan ishlar soni 15470 ta, Buyuk Britaniyada 3679 ta, Shveysariya 638 ta, Yaponiya 434 ta, BAA da 284 ta, Singapurda 170 ta, O‘zbekistonda esa atigi 5 tani tashkil etadi.

[6] https://library-tsul.uz/hakamlik-muhokamasi-2018/

Bundan ko‘rinyaptiki, rivojlangan davlatlar, xususan, AQSH, Buyuk Britaniya, Shveysariya va Yaponiyada intellektual mulk sohasidagi nizolarning soni boshqa davlatlarga nisbatan ancha yuqori[7]. Buning sababi esa, bu davlatlarda intellektual mulk obyektlarini kashf etish va ro‘yxatdan o‘tkazish va ularni tijoratlashtirish ham yuqori ko‘rsatkichda. Amerika nizolarni hal qilishda muqobil usullarni ishlab chiqqan dastlabki davlat hisoblanadi. Boshqa sohalar singari mualliflik huquqida ham mediatsiya jarayonini qo‘llash nizoning barcha bosqichlarida, sudgacha yoki sud jarayonida yoki apellatsiya jarayonida ham ko‘rib chiqilishi mumkin.

Buyuk Britaniyada mediatsiyaning rivojlanishiga Lord Vulfning 1996-yilda chiqarilgan “Odil sudlovga yo‘l” nomli hisoboti va 1990-yilgi fuqarolik odil sudlov islohoti turtki bo‘lgan. 1998-yilgi Fuqarolik protsessual qoidalari sudlarning mediatsiyani qo‘llashlari uchun huquqiy asosni yaratdi. Buyuk Britaniyada mediator xizmatidan foydalanish uchun maxsus ishonch raqamlari xizmati ham tashkil etilgan bo‘lib[8], bunda mamlakatning istalgan hududidan bog‘lanib, mediatorning malakasi, salohiyatiga nisbatan o‘z talablaringizni qo‘yishingiz va mediatorning afzalliklarini sanab berishingiz mumkin. Shunda sizning talablaringizga mos bo‘lgan mediatorlarning ro‘yxati taqdim etiladi va siz o‘z talabingizga mos mediatorni tanlash imkoniga ega bo‘lasiz.

Hindistonda mediatsiya orqali mualliflik huquqi nizolarini hal qilish. Hindistonda mediatsiya jarayoni yangilik emas, chunki qadim zamonlardan buyon nizolarni muqobil hal etish usullari qo‘llanilib kelinadi. Mediatsiyaning qo‘llanilishi Hindistonda qadim zamonlardan buyon qo‘llanilgan bo‘lib, o‘sha paytlarda norasmiy panchayatlar qishloqdagi hurmatli oqsoqollar yoki Mahajanlar deb ataluvchi obro‘li shaxslar nizolarni hal etuvchi vositachi vazifasini bajargan. Ilk marotaba mediatsiya tushunchasi 1947-yilgi “Sanoat nizolari to‘g‘risida”gi qonunida mustahkamlangan. Hindistonda mediatsiya qilish sud tomonidan taklif qilinadigan variant sifatida qaraladi. Mediatsiya quyidagi uch usul orqali amalga oshiriladi. Majburiy mediatsiya: ba’zi hollarda sudlar taraflar tayyor bo‘lmasada ularni mediatorga yuboradi. Bu Fuqarolik protsessual qonunida va Mediatsiya Qoidalarida belgilangan[9]. Sud tomonidan yuborilgan vositachilik bunda sud tomonidan tanlangan vositachi orqali mediatsiya qilinadi va uchinchisi Lok Adolat tizimi. Bu Hindistondagi mediatsiyaning o‘ziga xos bo‘lgan shakli bo‘lib, “xalq sudi” degan ma’noni anglatadi. Ikki tomon rozi bo‘lsagina, nizo Lok Adolatda ko‘rib chiqiladi. Agar, ish allaqachon sudda bo‘lsa, Lok Adolat orqali taraflar kelishsa, sudga to‘langan boj qaytariladi. Bizda ham shunday tartib qo‘llaniladi. Bu tizim 1982-yildan buyon rasman qo‘llanilib, ilk bor 1986-yil Chennayda bo‘lib o‘tgan. Bunda iste’fodagi sudya, advokat va yuristlar Gandi adolat tamoyiliga asoslanib, bepul vositachilik qiladilar va ular chiqargan hukm Hindiston Konstitutsiyasining 226-moddasiga muvofiq, majburiy va yakuniy qaror hisoblanib, shikoyat qilish mumkin emas chunki buni taraflar roziligi bilan hal qilingan ish deb hisoblashadi.

Rossiya Federatsiyasida mediatsiya orqali mualliflik huquqi nizolarini hal qilish. Rossiyada 2005-yildan beri “Mediatsiya va huquq ilmiy-metodik markaz” tashkil etilgan, “Mediatsiya va huquq “ maxsus jurnali chop etib kelinadi. Mediatsiya jarayoni 2010-yil 27-iyulda qabul qilingan 193-FZ-sonli “Mediator ishtirokida nizolarni hal qilishning muqobil tartibi to‘g‘risida” gi qonun asosida tartibga solinadi[10]. Rossiyada mediatorga murojaat qilish imkoni 2011-yildan buyon mavjud. Mediatorlik 2019-yilga qadar fuqarolik ishlari bo‘yicha olib borilgan bo‘lib, buning tarkibiga mualliflik huquqi bilan bog‘liq nizolarni mediatsiya orqali hal etish ham kiradi. 2019-yil 25-oktabrdan boshlab, ma’muriy va boshqa jamoat huquqiy munosabatlaridagi nizolarda mediatsiyadan foydalanish huquqi berilgan. Rossiya

[7] https://library-tsul.uz/intellektual-mulk-sohasida-nizolarni-hal-etish-bahramova-m-2023/
[8] https://library-tsul.uz/nizolarni-muqobil-hal-etish-usullari-xakberdiyev-a-mamasiddiqov-m-2025/
[9] https://previous.scientia.report/index.php/archive/article/view/162
[10] https://library-tsul.uz/intellektual-mulk-sohasida-nizolarni-hal-etish-bahramova-m-2023/

Federatsiyasidagi mualliflik huquqi nizolarida mediatsiyani qo‘llash jarayoni bosqichlari deyarli O‘zbekistondagi mediatsiya bosqichlari bilan bir xil. Mediatorga qo‘yiladigan malaka talablari ham o‘xshash. Mediatsiya natijasida tuzilgan mediatsiya shartnomasini bajarish majburiy emas, bu taraflarning vijdoni va ixtiyoriga bog‘liq holda qoldiriladi. O‘zbekiston Respublikasida esa mediativ kelishuv uni tuzgan taraflar uchun majburiy kuchga ega bo‘lib, ushbu kelishuv unda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda taraflar tomonidan ixtiyoriy ravishda ijro etiladi. Mediativ kelishuv ixtiyoriy ravishda bajarilmagan taqdirda, taraflar mediativ kelishuvni majburiy ijroga qaratishni so‘rab sudga murojaat etishga haqli.

Singapur davlatida mediatsiya o‘zining samaradorligi bilan ajralib turadi. Singapurda bu sohani tartibga solish Singapur konvensiyasi orqali amalga oshiriladi. Singapurda nizolarning 95 % qismi aynan mediatsiya orqali hal qilinadi. Mediatsiya orqali ko‘rib chiqilgan nizolarning 99 % qismi muvaffaqiyatli yakunlanadi. Hattoki eng hayratlanarli jihati, Singapurda davlat sudlariga murojaat qilish uchun to‘lanadigan boj mediatorga to‘lanadigan haqdan arzon bo‘lishiga qaramasdan, aholining kata qismi mediatsiya orqali o‘z nizosini hal qilishni afzal ko‘radi. Buning sababi esa mediatorlarga qo‘yiladigan malaka talabining o‘ta yuqoriligi va kuchliligi sabab, mediatorlar professional xizmatni taqdim etish imkoniga ega bo‘lishidadir. Bundan tashqari, Singapurda mediatorlar reystri mavjud bo‘lib, O‘zbekistondan farqli ravishda, unda har bir mediatorning muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz olib borgan mediatsiyalari haqida ma’lumot ham berib boriladi. Shunda, aholi tajribali mediator haqida to‘liq ma’lumot olish imkoniga ega bo‘ladi va mediator ham o‘z ustida ishlashga majbur bo‘ladi. Umumiy mediatorlik faoliyati va ular ko‘rib chiqadigan nizolar haqida fikr yuritar ekanman, mualliflik huquqidagi vujudga kelgan nizolarda mediatsiyani qo‘llash jarayoni ham boshqa huquq jarayonlaridagi nizolarni hal qilishda qo‘llaniladigan mediatsiya jarayoni bilan ayni bir xil.

Yaponiyada mediatsiya orqali mualliflik huquqi nizolarining hal qilinishi. Yaponiyada vositachilik munosabatlari “Fuqarolik yarashish to‘g‘risida”gi qonun asosida tartibga solinadi. Yaponiyada mediatsiya 3 usulda olib boriladi. 1. Sud tomonidan olib boriladigan mediatsiya. Bunda asosan, fuqarolik va oilaviy nizolar bilan bog‘liq ishlar ko‘rib chiqiladi ya’ni mualliflik huquqi nizolari ham shu mediatsiya usuli orqali amalga oshiriladi. 2. Suddan tashqari davlat organlari tomonidan olib boriladigan mediatsiya bunda asosan, ma’muriy ishlar va mehnat nizolarini ko‘rib chiqishda qo‘llaniladi. 3. Xususiy sektor vositachiligi ya’ni nodavlat mediatsiya. Mualliflik huqquqi nizolarini hal etishda mediatsiyani qo‘llash jarayoni boshqa nizolarni hal qilishda qo‘llanilgan mediatsiya bosqichlari singari bir xil tartibda olib boriladi va bu tartib O‘zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan mediatsiya jarayoniga juda yaqin. Toki ikkala tomon ham nizoni mediatsiya orqali ko‘rib chiqishga rozilik bermasa, mediatsiya jarayoni olib borilmaydi. Ammo, farqli jihati maxfiylik prinsipida namoyon bo‘ladi. Ya’ni bizda mediatsiya jarayoni natijasida olingan ma’lumotlar, ashyoviy dalillardan mediatsiya tugatilgandan keyin shu nizo bo‘yicha olib borilgan sud muhokamasida foydalanish taqiqlanadi. Ammo, Yaponiyada bu qonun bilan taqiqlanmagan. Shuningdek, Yevropa va boshqa mamlakatlarning yarashish an’analaridan farqli ravishda, Yaponiyadagi mediatsiya qo‘mitasiga ancha keng vakolatlar berilgan, xususan, u guvohlarning ko‘rsatmalarini chaqirish va tinglash, ekspertiza tayinlash, yozma va ashyoviy dalillarni tekshirish huquqiga ega.

Islom huquqi amal qiladigan davlatlarda jumladan, BAA, Saudiya Arabistoni, Qatar, Ummon va boshqa davlatlarda nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish “sulh” deb atalib, muhim institutlardan biri hisoblanadi va hatto rag‘batlantiriladi. Ushbu tizim aynan mediatsiya nomi ostida tilga olinmasada, islom vujudga kelganidan buyon qo‘llaniladi va islom huquqining asosi bo‘lgan muqaddas Qur’onda o‘z ifodasini topgan. Bugungi kunda, BAA da maxsus

mediatsiya markazlari faoliyat ko‘rsatadi. Qator va Ummon sud tizimida mediatsiya integratsiya qilingan. Malayziyada shariat sudlarida mediatsiya keng qo‘llaniladi. Indoneziyada suddan oldin mediatsiya qilish majburiy bosqich sifatida qaraladi.

Xalqaro amaliyotda mediatsiyaning qator ko‘rinishlari mavjud bo‘lishiga, mediatsiyani amalga oshirish turi va tartib-taomili farq qilishiga qaramasdan, mediatsiyaning asosiy prinsiplari bir xil. Ya’ni maxfiylik, ixtiyoriylik, taraflar tengligi, mediatorning xolisligi, taraflarning bir-biriga hurmatda bo‘lishi va hokazo prinsiplar aynan bir xil. Qator xorijiy davlatlarda ham O‘zbekiston qonunchiligidagi singari mediatorning mutaxasisligi aynan yuridik soha bilan bog‘liq bo‘lishi talab etilmaydi. Ammo, obro‘li, insoniy fazilatlarga ega va nizolarni hal qilishda zarur bilim va tajribaga egaligi muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda, O‘zbekistonda intellektual mulk sohasida sodir etilayotgan jinoyatlar soni ortmoqda. Xususan, 2020-yil 81 ta, 2021-yil 887 ta, 2022-yilda esa 1 ming 209 ta qonun buzilish holati aniqlangan. O‘zbekistonda intellektual mulk sohasida, mualliflik huquqidagi nizolarni hal qilishda mediatsiya jarayonidan foydalanish darajasi hamon pastligicha qolmoqda. Chunki hali O‘zbekistonda mediatsiya instituti yetarli darajada ommalashmagan. Bunga sabab esa avvalo, aholining mediatsiya bo‘yicha xabardorligi yetarli darajada emas. Aholining aksariyat qismi mediatsiya nima ekanligini ham bilmaydi. Ikkinchidan, aholining mediatsiya institutiga nisbatan ishonchsizligidir. Ya’ni aholining katta qismi o‘z nizolarini sudda hal qilishga ko‘nikib qolgan yoxud ba’zilar ikkinchi tomonga bosim o‘tkazish uchun ham nizosini aynan sud orqali hal qilmoqchi bo‘ladi. Bundan tashqari, yana bir muhim sabab- malakali mediatorlarimiz yetarli darajada emas, xususan, chekka viloyat va tumanlarda. Mualliflik huquqi bilan bog‘liq nizolarda aholining bu bo‘yicha shikoyat qilmasligi ham bu mualliflik huquqini buzish holatlarining ko‘payishiga olib keladi. Chunki, muallif o‘zi murojaat qilmaguncha davlat bu nizoni ko‘ra olmaydi, mualliflik huquqini buzganlarni javobgarlikka torta olmaydi. Ushbu muammolarimizga yechim o‘laroq, malakali mediatorlar sonini oshirishimiz, oliygohlarda mediatorlik bo‘yicha mutaxasisliklarni ko‘paytirishimiz, mediatsiya orqali nizolarni hal qilish xalq uchun manfaatli ekanligini xalqqa singdirishimiz, mediatsiya qilish imkoni bo‘lgan nizolar bilan fuqarolar murojaat qilganida ularning nizosini mediatsiya orqali tez va oson hal qilish mumkin ekanligini ularga tushuntirishimiz, kerak bo‘lsa, ba’zi sohalarda majburiy mediatsiyani joriy etishimiz kerak deb hisoblayman. Xususan, aholi xabardorligini oshirishning eng zo‘r usuli sifatida ichki ishlar xodimi ya’ni har bir hududga biriktirilgan uchastka noziri xizmatidan foydalanishni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, hududlarda qandaydir muammo vujudga kelganda avvalo, o‘sha hududga biriktirilgan uchastka noziri bundan xabar topadi. Agarda, biz uchastka nozirlariga mediatsiyaning fuqarolarning nizosini hal etish uchun qanchalik maqbul yechim ekanligini, mediatsiya jarayonining afzalliklarini yaxshi tushuntira olsak, tabiiyki, ular o‘z biriktirilgan hududidagi fuqarolarga avvalo, mediatsiya orqali nizolarini hal etish va o‘zaro aloqa va hamkorlikni saqlab qolishga erishish mumkinligini tushuntiradi va aholi o‘rtasida mediatsiya orqali nizolarini hal qilishga nisbatan qiziqish vujudga keladi deb o‘ylayman. Yoxud, nizolarni sudda ko‘rib chiqishdan oldin xorijiy davlatlar tajribasiga asosan, majburiy mediatsiya qilish tizimini yo‘lga qo‘yish kerak. Bunda biz taraflarni majburiy kelishuvga erishishga majburlamaymiz, shunchaki, mediatsiya qilib ko‘rish va agarda, kelishuvga erisha olsa o‘z foydasiga, agar kelishuvga erisha olmasa ishi sud tartibida ko‘rish mumkinligini aholiga uqtiramiz. Ya’ni aholiga shu darajada singdirishimiz kerakki, ular nizosini sud orqali emas, mediatsiya orqali hal qilish qulay va muqobil usul ekanligini anglashi kerak. Malakali mediatorlarni tayyorlash uchun esa ularga beriladigan ta’lim tizimini takomillashtirish ya’ni yuridik bilim bilan birga psixologik bilimlarni, diplomatik bilimlarni, murosa ilmini chuqur o’rgatish lozim. Bundan tashqari, Singapur tajribasiga asoslanib, mediatorlarning malaka

talablarni kuchaytirishimiz lozim. Yuqoridagi takliflar yoxud boshqa islohotlar orqali mediatsiyani rivojlantirishga erishganimizda, mualliflik huquqi sohasidagi nizolarni hal qilishda ham mediatsiyani qo‘llash ulushini oshirishimiz mumkin bo‘ladi deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati :

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Mediatsiya to‘g‘risida” gi Qonun, 03.07.2018-yil, O‘RQ-482-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi – T., 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4168-sonli “Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4380-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonun, 20.07. 2006-yil, O‘RQ-42-son.

Ilmiy va adabiy adabiyotlar:

1. Intellektual mulk sohasida nizolarni hal etish. Bahromova M. O‘quv qo‘llanma. T.: TDYU nashriyoti, 2023.
2. Nizolarni tnch yo‘l bilan hal etish usullari. Xaqberdiyev A, Mamasiddiqov M. Toshkent – 2025
3. Hakamlik muhokamasi. O‘quv qo‘llanma. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU, 2018.
4. Yakubova I.B. Mualliflik huquqi: o‘quv qo‘llanma. –T: 2020.- 40-b
5. https://previous.scientia.report/index.php/archive/article/view/162